

Navoiy dunyosi

Bul kecha kezdim gʻazal dunyosida,
Hazratim sheʼrin goʻzal dunyosida.

Sarv qadlarni tamosho ayladim,
«Chor devon» mulkin asal dunyosida.

Yor jamoli tomchida oftob edi,
Sayr qildim ming Zuhul dunyosida.

Chehralar gul-gul yonur, koʻzlar xumor,
Yayradim ishqul amal dunyosida.

Buncha sanʼat, buncha hayrat, buncha zavq
Jam Navoiyning mashal dunyosida.

To jahon borki, Navoiy barhayot
Bul abad birlan azal dunyosida.

Odam

Odam-ku mislsiz bir sanʼat azal,
Jahon devonida eng porloq gʻazal.

Bu gʻazal maʼnosin oʻqisang ming yil,
Yana qaynab chiqar maʼnolar ming xil.

U — soʻngsiz teranlik, koʻz etmas qoya,
Unda nur behisob va koʻpdur soya.

Har satri, har soʻzi, har bitta vazni —
Buyuk tilimlarning pinhoni bazmi.

Na idrok qamragay, na uchqur xayol,
U minglab jumboqdir va minglab savol.

Oʻzligin mukammal anglab etgan dam,
Rivojdan toʻxtagay qudratli Odam.

Aql va yurak

Qaynab yotar buyuk koinot,
Ich-ichiyu tashqarilari.
Ming shaklli harakat, hayot
Aql bilan boshqariladi.

Odamzod ham so'ngsiz bir karvon,
Harakatda yosh-qarilari.
Iqbol, umid, intilish, armon
Aql bilan boshqariladi.

Faqat sevgi bepoyon naql,
Zamonlarga sig'mas mashqlari.
Izhoriga etmagay aql.
Yurak bilan boshqariladi.

Tong otur

Tong otur, sharqdan ajib nurlar kelur,
Nur bilan osmon to'la hurlar kelur.

Navbahoriy shu'ladan yayrar ko'ngil,
Ko'p mayin ohangu "qur-qur"lar kelur.

Yam-yashil vodiylarim baxmal kiyib,
Maysa, gul bo'ynin bezab durlar kelur.

Goh-goh shaddodlanib, sharroslanib,
Qut-barokat koni — yomg'urlar kelur.

Navbahor ayyomi ishrat chog'i deb,
Sog'inib do'stlarni Boburlar kelur.

To'rtliklar

Qog'oz chehrasida olam aks etar,
Olam haqiqatin qalam naqsh etar.
O'zbekiston degan boylik ko'rkini
Saxovat ufurgan dalam naqsh etar.

* * *

Mayli Arastu bo'l, mayli Sofokl,
Zo'r ijodlar yarat, yayra, safo qil.
Agar samolarga etsa-da boshing,
Ko'ngilni kibrdan sof-musaffo qil.

* * *

Vatandir qalbingga abadiy gʻurur,
Dilingga quvvatu koʻzlaringga nur.
Agar jahon ichra men borman desang,
Diyoring tuprogʻin koʻzlaringga sur.

* * *

Ikki odam yashar har bir odamda,
Biri der: — Bu dunyo farogʻatin qil!
Biri der: — Yaxshi iz qoldir olamda!
Rost yoʻlni tutganlar haqiqiy oqil.

Jumaniyoz Jabborov
Oʻzbekiston xalq shoiri.
Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasidan.